

SI JINPINGNING SHHT DAGI NUTQLARIDA QO'LLANILGAN 成语
CHÉNGYŪ LARNING TASNIFI VA STATISTIKASI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2023-21-88-92>

Ismatullayeva Nargiza Rasuljanovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
“Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrası,
PhD, dotsent v.b.

Karimova Madina Kaxramon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrası
Sinxron tarjima yo‘nalishi magistranti
karimovamadina1313@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqola XXR raisi Si Jinpingning ShHTdagi nutqlarida frazeologik birliklarning qo‘llanilishi masalalariga bag‘ishlangan. Maqolada Si Jinpingning ShHT yig‘ilishlarida so‘zlagan nutqlari tarkibidagi qo‘llangan frazeologik birliklardan 成语 chéngyū lar va ularning mavzuiy guruhlari, hamda tarjima qilish usullari va strategiyalari tadqiqot obyekti sifatida xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlari:** frazeologik birliklar, 成语 chéngyū, idioma, badiiylik, klassifikatsiya.*

***Аннотация.** Данная статья посвящена использованию фразеологизмов в выступлениях Председателя Китайской Народной Республики Си Цзиньпина в ШОС. В данной работе объектом исследования служат чэнью и их тематика, а также методы и стратегии перевода, использованные фразеологизмы в выступлениях Си Цзиньпина на заседаниях ШОС.*

***Ключевые слова:** фразеологизмы, чэнью, идиома, статистика, классификация.*

***Annotation.** This article is devoted to the use of phraseological units in the speeches of the President of the People's Republic of China Xi Jinping at the SCO. In this work, chéngyū and their topics, as well as translation methods and strategies, used phraseological units in Xi Jinping's speeches at the SCO meetings, serve as the object of research.*

***Key words:** phraseological units, chen'yu, idiom, statistics, classification.*

KIRISH

Shanhay hamkorlik tashkiloti dastlab, 1996- yil tashkil qilingan, so‘ngra 2001-yildan e‘tiboran o‘z faoliyatini qayta boshlagan. Eng so‘nggi 2022-yil 15-16-sentabr kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan sammit tashkilot qayta tashkil qilingandan beri tartib bo‘yicha 22-yig‘ilish bo‘ldi. 1996-yildan to 2022-yilgacha bo‘lgan

yig'ilishlarda Xitoy Xalq Respublikasining uch rahbari Jiang Zemin, Hu Jintao, Si Jinpinglar o'z faoliyat davrlarida ShHT ta'sischi davlatlaridan biri bo'lmish Xitoy vakili sifatida ishtirik etdilar. Jiang Zemin 1993-yildan 2003-yilgacha, Hu Jintao 2003-yildan 2013-yilgacha, 2013-yildan e'tiboran Si Jinping davlat rahbari sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Si Jinping ShHTning 2014-yildan 2022-yilgacha bo'lgan to'qqizta yig'ilishida ishtirok tib, nutq so'zlagan bo'lib, mazkur ishda uning nutqida frazeologik birliklardan 成语 *chéngyǔ* lar ya'ni iboralarning qo'llanilishi va ularning mavzulari, tarjima masalalarini tahlil qilamiz.

Si Jinping Xitoy Xalq Respublikasi raisi bo'lganidan so'ng uning chiqishlari ko'pchilikning e'tiborini tortdi. U atoqli davlat va siyosat arbobi sifatida mamlakatni isloh qilish va rivojlantirish, davlat boshqaruvi, ichki va tashqi siyosat, diplomatik aloqalar va hokazo mavzularda ma'ruzalar qilib, yangi g'oya va tashabbuslarni ilgari surib kelmoqdi.

Uning o'z fikrlarini ifodalash uslubidan ko'rinib turibdiki, Si Jinping yuksak notiqlik mahoratiga ega. Ayniqsa, uning frazeologik vositalardan foydalanish, nutqqa ta'sirchanlik berish qobiliyati sezilarli darajada ko'zga tashlanib turadi. Bu ko'pchilik tilshunos olimlarning e'tiborini tortgan. Masalan, rus tilshunoslaridan Garbovskiy va Golublar Si Jinping nutqlarini o'rganib, quyidagi fikrlarni bildiradilar:

“Nutq materiallarini tahlil qilgandan so'ng, frazeologik birliklar va qanotli so'zlar Si Jinping nutqida ko'p qo'llaniladigan iboralar ekanligi ayon bo'ladi. Masalan, “中国古代历来讲格物致知、诚意正心、修身齐家、治国平天下。从某种角度看，格物致知、诚意正心、修身是个人层面的要求，齐家是社会层面的标注，治国平天下是国家层面的要求。” [宋均芬, 2002, 69] (*Qadimgi Xitoyda har doim narsalarni o'rganish ilmga ega bo'lish, ixlos va to'g'rilik, o'z-o'zini tarbiyalash va oila, mamlakat va dunyoni boshqarish uchun aytilgan. Tinch dunyo milliy darajadagi talabdir.*) Bu qisqagina nutqda bir vaqtning o'zida oltita ibora qo'llanilgan bo'lib, bunday idiomalardan keng foydalanish Si Jinpingning nutqining o'ziga xos va takrorlanmas xususiyatidir.” [Гарбовский, 2004, 5]

MAQSAD VA VAZIFALAR

Mazkur tadqiqot ishining maqsadi, Si Jinpingning ShHTdagi nutqlarida frazeologik birliklardan 成语 *chéngyǔ* lar, ya'ni to'rt iyeroglifli iboralarning qo'llanilishi va o'zbek tiliga tarjima qilinishi masalalari hamda bu jarayonda duch kelinadigan muammolar va unga yechim berish usullarini ochib berishdir. Ishning vazifalari quyidagilar:

– ShHTda Si Jinpingning ishtirok yillari xususida qisman to'xtalib o'tish va tegishli ma'lumotlarni berish;

– Si Jinpingning ShHT yig'ilishlarida 成语 *chéngyǔ* lardan qanchalik ko'p qo'llashini aniqlash va statistikasini shakllantirish;

– Nutqlarda qoʻllanilgan frazeologik birliklarni topish va ularning mavzularini aniqlab, klassifikatsiya qilish;

– Nutqlarda uchragan 成语 *chéngyǔ* larning tarjima masalalariga toʻxtalib oʻtish va tahlil qilish.

Usullar: mavzuni yoritish jarayonida shu sohaga oid manbalar oʻrganildi, qiyosiy-chogʻishtiruv, statistik, klassifikatsiya metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot manbasi sifatida Si Jinpingning 2014-2022-yillardagi nutqlari hamda rus, ingliz, xitoy va oʻzbek tilidagi Si Jinping nutqlaridagi frazeologik birliklarning qoʻllanilishiga oida tadqiqot ishlari olindi.

Tadqiqotning obyekti sifatida Si Jinpingning 2014-2022-yillardagi nutqlari tarkibida kelgan 成语 *chéngyǔ* larning tarjimasi, mavzusi, statistikasi olindi.

NATIJA VA MULOHAZALAR


Si Jinping Doimiy qoʻmita va Siyosiy byuro yigʻilishlarida, xalqaro anjumanlarda, sammitlarda siyosatni koʻp va ochiqchasiga muhokama qilmaslikka odatlangan boʻlsada, lekin koʻpincha minbarda uzoq nutqlar soʻzlaydi. Si Jinpingning 2014-2022-yillardagi nutqlari har bir soha mutaxasisi tomonidan tegishli ilmiy va tadqiqot obyekti sifatida yetralicha oʻrganilgan. Siyosiy, iqtisodiy jihatdan butun dunyo olimlari turlicha baholaganlar. Biz esa mazkur ishimizda uning nutqlarining siyosiy yoki iqtisodiy jihatlari emas, balki tilshunoslik jihatidan yondashgan holatda tadqiq qilamiz. Si Jinpingning ShHTdagi nutqlarida qoʻllanilgan frazeologik birliklar yoki aynan chengyular yaʼni toʻrt iyeroglifli iboralarni oʻrganishdan avval, mazkur yigʻilishlardagi nutqlarning asosiy mavzulariga toʻxtalib oʻtamiz. ShHT sammitlari minbarida Si Jinping quyidagi mavzularda nutq soʻzlaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlar bilan birdamlik va hamkorlikni mustahkamlash va ShHTning aʼzo va kuzatuvchi maqomidagi mamlakatlarning umumiy manfaatlarini himoya qilish uchun samimiylik, yaqinlik va ishonchlilik tushunchasiga, adolat va manfaat tamoyillariga qatʼiy rioya qilish, Xitoy Kommunistik partiyasi boshqa davlatlarning siyosiy partiyalari va siyosiy tashkilotlari bilan mustaqillik, toʻliq tenglik, oʻzaro hurmat va oʻzaro ichki ishlarga aralashmaslik tamoyillari asosida almashinuv va hamkorlikni mustahkamlashga tayyor ekanligi, dunyo nigohida boʻlgan muammolarga Xitoyning siyosiy va insoniy pazitsiyasi, shu kunga qadar davlatlar bilan oʻzaro hamkorlikda amalga oshirib kelinayotgan ishlarning natijasi, yutuqlari va kamchiliklari hamda kelgusidagi rejalar – uning nutqlari obyekti hisoblanadi. [Голуб, 2001, 56]

Si Jinping ShHTdagi nutqlarida umumiy hisobda 40dan ortiq 成语 *chéngyǔ* lar yaʼni toʻrt iyeroglifli frazeologik birliklarni qoʻllagan, ular quyidagilar:

2022-yildagi 成语(*Chéngyǔ*)lar 落地生根 *luòdì shēnggēn* “ildiz otmoq”, 共同努力 *gòngtóng nǚlì* “qoʻlni qoʻlga bermoq”, 齐心协力 *qíxīn xiélì* “umumiy maqsadlarga erishmoq”, 携手 *xiéshǒu* “qoʻlni qoʻlga bermoq”, 深入人心 *shēnrù rénxīn* “insonlar qalbidan chuqur joy olayapti”, 2021-yildagi 铜墙铁壁

tóngqiángtiēbì “temir tayanch”, 颐指气使 yízhǐqìshǐ “mag'rur rahnamo”, 硕果累累 shuòguǒ lěilěi “samarali”, 公平合理 gōngpíng hélǐ “teng huquqli va adolatli”, 2020-yildagi 同舟共济 tóngzhōugòngjì “bir qayiqda bo'lmoq”, 守望相助 shǒuwàngxiāngzhù “yelkama yelka kurashmoq”, 以邻为壑 yǐlínwéihè “qo'shnisiga suyanmoq”, 当务之急 dāngwùzhījī “o'ta muhim va shoshilinch”, 深入人心 shēnrù rénxīn “xalq qalbidan chuqur joy olmoq”, 以史为鉴 yǐshǐwèijiàn “tarixni ko'zgudek qabul qilmoq”, 坚定不移 jiāndìng buyi “ahdida sobit turmoq” 2019-yildagi 不可逆转 bùkě nìzhuǎn “ortga qaytarib bo'lmaydigan”, 感同身受 gǎntóngshēnshòu “butun ong-shuuriga chuqur singib ketmoq”, 力所能及 lìsuǒnéngjí “kuchli va qobiliyatli”, 相得益彰 xiāngdéyìzhāng “bir-birini to'ldirmoq” 2018-yildagi 不亦乐乎 bù yì lè hū “cheksiz baxt”, 登高望远 dēnggāo wàng yuǎn “uzoq marralarni ko'zlamog”, 人心所向 rénxīn suǒ xiàng “xalq orzu-istaklarini anglamoq”, 大势所趋 dàshìsuǒqū “rivojlanish va taraqqiyot”, 自私自利 zìsīzì lì “o'z manfaatlarini ko'zlamog”, 同舟共济 tóngzhōugòngjì “bir qayiqda bo'lmoq”, 齐心协力 qíxīn xiélì “bir yoqadan bosh chiqarmoq”, 求同存异 qiú tóng cún yì “o'zaro til topishmoq”, 2017-yildagi 卓有成效 Zhuóyǒuchéngxiào “samaradorlik va yutuqlar”, 同舟共济 tóngzhōugòngjì “bir kemada bo'lmoq”, 守望相助 shǒuwàngxiāngzhù “bir-birini qo'llab-quvvatlamog va himoya qilmoq”, 任重道远 rènzhòngdàoyuǎn “uzoq va mashaqqatli yo'l”, 一如既往 yīrújìwǎng “xuddi o'tmishdagi kabi” 2016-yildagi 卓有成效 zhuóyǒuchéngxiào “samarali va foydali”, 共同努力 gòngtóng nǔlì, “birgalikda uyushib harakat qilmoq” 志同道合 zhìtóngdàohé “fikri bir joydan chiqmoq”, 风云变幻 fēngyún biànhuàn “o'zgaruvchan vaziyat”, 一点一滴 yī diǎn yī di “juda oz miqdor”, 2015-yildagi 深入人心 shēnrù rénxīn “xalq qalbidan joy olgan”, 发扬光大 fāyángguāngdà “olg'a intiluvchi”, 别有用心 biéyǒuyòngxīn “g'arazli niyatli”, 相辅相成 xiāngfǔxiāngchéng “bir-birini to'ldiradigan” kabi iboralaridir.

Yuqoridagi iboralardan Si Jinpingning ShHT sammitlaridagi nutqlarida asosan, xalqlarning birdamligi, hamjihatlikda harakat qilish, qo'shnicilik munosabatlari, o'zaro ishonch, rivojlanish va taraqqiyot, inson qadri, xalq farovonligi va tarixdan to'g'ri xulosalar chiqarishga undash mazmunidagi iboralar ko'proq qo'llanilgani ma'lum bo'ladi. Mazkur mavzular orasida eng ko'p uchraydigan 100 ulushdan 50 ulush davlatlararo hamkorlik, do'stlik va ishonch mavzulari bo'lsa, 100 ulushdan 20 ulush faravon kelajak va unga erishish uchun birgalikda harakat qilishga undaydigan mazmundagi iboralar, 100 ulushdan 10 ulush o'tmish, tarix obyektli iboralar, 100 ulushdan 10 ulush inson qadri, xalq istak va orzulari bo'lsa, 100 ulushdan 5 ulushi salbiy mazmundagi va 100 ulushdan 5 ulushi ijobiy mazmundagi sifatlardir.



XULOSA

Mazkur ishimiz davomida Si Jinpingning ShHT sammitlaridagi barcha nutqlaridagi 成语 *chéngyǔ* lar, ya'ni to'rt iyeroglifli frazeologik birliklarni ko'rib chiqish davomida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Si Jinping Shanhay Hamkorlik Tashkilotining 2014-yildan 2022-yilgacha bo'lgan sammitlarida frazeologik birliklardan asosan, 成语 *chéngyǔ*, ya'ni to'rt iyeroglifli iboralarni nisbatan ko'p qo'llagan. Bundan tashqari uning nutqlarida maqollar, uch iyeroglifli frazeologik birliklar ham ko'zga tashlanadi.

2. Nutqlarni tadqiq qilish jarayonida yana bir jihat – Si Jinping turli yillardagi sammitlarda so'zga chiqqanida 成语 *chéngyǔ* larni takror qo'llagani e'tiborimizni tortdi. Masalan, 共同努力 *gòngtóng nǚlì*, “birgalikda uyushib harakat qilmoq”, 深入人心 *shēnrù rénxīn* “xalq qalbidan joy olgan”, 同舟共济 *tóngzhōugòngjì* “bir qayiqda bo'lmoq”, 齐心协力 *qíxīn xiélì* “bir yoqadan bosh chiqarmoq”. Yuqoridagi iboralarning ba'zilari, ikki martadan, ba'zilari uch martadan ham takrorlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 宋均芬. 汉语词汇学。 – 北京：知识出版社，2002。 – 180 页。
2. Гарбовский н.К. теория перевода. – М.: Издво Моск. ун-та, 2004.
3. Голуб И.Б. стилистика русского языка. – М.: Айрис Пресс, рольф, 2001.
4. Си Цзиньпин о государственном управлении. – Пекин: Изд-во литературы на иностранных языках, 2014. т. 1 (на кит. яз.).